

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI FRAZEONIMLARNING SEMANTIKASI (SINONIMIK VA ANTONIMIK MUNOSABATLAR MISOLIDA)

G'aybullayeva Dildora Fayzulla qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti katta o'qituvchisi

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

email: dildoragaybullayeva@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolaning maqsadi ingliz va o'zbek tillaridagi frazeonimlarning semantik xususiyatlarini sinonimik va antonimik munosabatlar asosida qiyosiy tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot vazifalari sifatida frazeonimlarning semantik jihatlarini aniqlash, ularning o'xshash va farqli tomonlarini ochib berish hamda sinonimik va antonimik munosabatlarning lingvostilistik xususiyatlarini yoritish belgilandi. Tadqiqotda tavsifiy, qiyosiy, semantik tahlil va lingvostilistik metodlardan foydalanildi. Natijada ingliz va o'zbek tillaridagi frazeonimlarning ma'no munosabatlarida umumiy va milliy-madaniy jihatlar mavjudligi aniqlandi hamda ularning frazeologik tizimdagi o'rni yoritildi.

Kalit so'zlar: *frazeonim, semantik xususiyat, frazeologik sinonimiya, frazeologik antonimiya.*

Annotation. The aim of this article is to conduct a comparative analysis of the semantic features of phraseonyms in the English and Uzbek languages based on synonymous and antonymous relations. The objectives of the study include identifying the semantic characteristics of phraseological units containing proper-name components, revealing their similarities and differences, and examining the linguostylistic features of synonymous and antonymous relations. The research employs descriptive, comparative, semantic, and linguostylistic methods of analysis. The findings reveal both common and national-cultural aspects in the semantic relations of English and Uzbek phraseonyms and determine their role within the phraseological system.

Keywords: *phraseonym, semantic feature, phraseological synonymy, phraseological antonymy.*

KIRISH

Nafaqat ilm ahli, balki oddiy xalq ham frazeologizmlar nutqga mazmun, mohiyat, asoslilik, obrazlilik hamda yorqinlik bag'ishlay olishi haqida bilishi hech birimizga sir emas. Frazeologik birliklarning ushbu xususiyatlari hech qanday badiiy tasvir nazarda tutilmaydigan uslub hisoblangan so'zlashuv uslubida ham o'zining ekspressiv atmosfera hosil qilish xususiyatini yaqqol namoyon eta oladi [6]. Ammo badiiy uslubda frazeologik birliklarning, ayniqsa ular turlicha ifodalangan bo'lsa, ta'sirchanlik xususiyati yanada yorqinroq namoyon bo'lib, ijodkor san'ati orqali asar qahramonining xulq-atvori, tarbiyasi, hayotiy maqomi, madaniyati, ma'naviyati, intellektual salohiyatini aniq ko'rsata oladigan asosiy qurol, ijodiy yondashuv bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Frazeologiya tilshunoslikning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, unda tildagi barqaror birikmalarning semantik, stilistik va lingvomadaniy xususiyatlari tadqiq etiladi. So'nggi yillarda frazeologik birliklarni, xususan, atoqli ot komponentli

frazeologizmlar ya'ni frazeonimlarni o'rganishga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Frazeonimlar xalqning tarixiy, madaniy va milliy dunyoqarashini aks ettiruvchi til birliklari sifatida alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi [2].

Tilshunoslar frazeologizmlarda sinonimik belgilarni turlicha mezonlarda e'tirof etganlar. Masalan, M.M.Kopilenko va Z.D.Popova frazeologik sinonimiyani tarkibidagi leksemalarga ko'ra farqlanuvchi, ma'no jihatdan yaqin bo'lgan, lekin bir yoki bir necha semantik belgilarga ko'ra farqlanuvchi turg'un iboralar sifatida talqin etadilar [4].

Akademik N.M. Shanskiy esa frazeologik sinonimiya haqida quyidagi ta'rifni keltiradi: "Obektiv borliqdagi aynan bir xil predmentni anglatuvchi turli iboralar sinonimik frazeologizmlar deb ataladi" [8].

O'zbek tilshunosligida Sh. Rahmatullayev o'zbek frazeologiyasining nazariy asoslarini ishlab chiqib, frazeologik birliklarning semantik va uslubiy jihatlarini keng yoritgan [7]. B. Yo'ldoshev, A. Hojiyev va boshqa olimlar o'zbek tilidagi frazeologik birliklarning tasnifi, ma'no munosabatlari hamda nutqdagi funksional xususiyatlarini tadqiq qilganlar [10, 3]. Ayniqsa, frazeologik sinonimiya va antonimiya masalalari tilning obrazlilik imkoniyatlarini ochib berishda muhim omil sifatida talqin etiladi.

TADQIQOT METODLARI

Mazkur tadqiqotda ingliz va o'zbek tillaridagi frazeonimlarning semantik xususiyatlarini aniqlash hamda ularning sinonimik va antonimik munosabatlarini tahlil qilish maqsadida tavsifiy, chog'ishtirma, semantik tahlil hamda lingvostilistik metodlardan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida ingliz va o'zbek tillariga oid badiiy asarlar, frazeologik lug'atlar hamda ilmiy manbalardan misollar tanlab olinib, ular ilmiy jihatdan umumlashtirildi va tasniflandi.

NATIJALAR VA MUNOZARA

Frazeonimlarning semantik xususiyatlarini ularda uchrovchi frazeologik sinonimiya, frazeologik antonimiya, hodisalari yordamida yanada kengroq o'rganish mumkin. Agar misollarga yuzlanadigan bo'lsak, frazeonimlarda ularning semantik xususiyatini ochib beruvchi sinonimik hodisaga *Jumping Judas!*, *Jesus, Mary and Joseph!*, *Great Scott* kabi misollarni keltirish mumkin. Sababi, ushbu frazeonimlarning uchalasi ham "biror narsadan lol qolishni, hayratdan yoqa ushlamoq holati"ni ifodalash uchun qo'llaniladi:

Jesus, Mary and Joseph! Don't sneak up on me like that-you scared me half to death! [1].

Yana bir misol: *According to Hoyle* hamda *According to Cocker* frazeonimlari bo'lib, ular ham o'z navbatida sinonim frazeologizmlar hisoblanadi. Berilgan har ikki frazeologizm ham "qoida bo'yicha o'ynamoq" ma'nosini anglatadi:

His divinely inspired plan had gone exactly according to Hoyle. He'd fooled them. [1].

Yuqoridagi misollarga qo'shimcha sifatida "orasidan qil o'tmas do'stlar" ma'nosini beruvchi *David and Jonathan* va *Damon and Pythias* frazeonimlarini, "ayollarga suyagi yo'q" ma'nosini anglatuvchi *In like Flynn* va *Don Juan*, "Mag'rib-u Mashriqda" ma'nosini beruvchi *From China to Peru* hamda *From Dan to Beersheba* frazeonimlarini ham sinonimik frazeologiya hodisasiga misol qilib keltirish mumkin.

Agar umumiy ma'noda antonimiyani til birliklari orasidagi semantik munosabat asosida belgilanadigan hodisalardan biri sifatida olsak, frazeologik birliklarda ham so'zlardagi daraja muvofiq frazeologik antonimiya hodisasini uchratish mumkin [5]. Frazeologik antonimiya hodisasiga quyidagi frazeonimlarni ham misol qilib keltirish

mumkin: 1) *in Queer Street* (yeng uchida hayot kechirmoq) va *On Easy Street* (bekamu ko'st yashamoq), 2) *Clever Dick* (aqli, dono) va *Dumb Dora* (aqlsiz), 3) *as poor as Job* (qashshoq) va *as rich as Croesus* (badavlat), 4) *as wise as Solomon* (aqli raso) va *as mad as March hare* (tovuqmiya) va boshqalar. Bunda birinchi va ikkinchi antonim iboralar leksik tarkibi turlicha, ya'ni, ularning komponentlari boshqa-boshqa, uchinchi va to'rtinchi antonim frazeonimlarning asosiy so'z komponenti qarama-qarshi ma'noga ega (Poor-rich, wise-mad), shuningdek har bir antonim frazeonim tarkibidagi atoqli ot bilan ifodalangan komponent butunlay bir-biridan farq qiladi. Bu esa, o'z navbatida, hatto atoqli otlar bilan yasalgan frazeonimlarni aniqlash jarayonida ham, antonim so'z-komponentlarni aniqlab olish muhim ekanligini anglatadi.

Frazeologik antonimlar antonimik uyalar, qatorlar va guruhlar tarkibiga kiradi. Antonimik uyalar tarkibiga, antonim komponentlarga ham, umumiy komponentlarga ham ega bo'lgan birliklar kiritiladi: *In Queer Street* (yeng uchida hayot kechirmoq) - *On Easy Street* (bekamu ko'st yashamoq). Antonimik qator tarkibiga faqat antonim komponentlarga ega bo'lgan birliklar kiritiladi: *as poor as Job* (qashshoq) - *as rich as Croesus* (badavlat), *as wise as Solomon* (aqli raso) - *as mad as March hare* (tovuqmiya). Tadqiq etiladigan frazeologizmlar antonimik guruhlar tahlilining ko'rsatishicha, butunlay o'z leksik tuzilishi bilan farqlanadigan birliklar qarama-qarshi qo'yiladi: *rich as Croesus* (badavlat)– *as poor as Job* (kambag'al); *common or garden* (oddiy, behasham) - *arty and crafty* (ko'rkam, mo'jaz); yoki leksik tuzilishida boshqa turli komponentlar ichida bitta umumiy komponent bo'lgan birikmalar: *come up in the world* (tug'ilmoq)- *come down in the world* (vafot etmoq); *in Queer Street* (yeng uchida hayot kechirmoq) - *On Easy Street* (bekamu ko'st yashamoq). Demakki, antonimik aloqalar frazeologik birliklar uchun xarakterli jihatlardan ekanini hisobga olgan holda uni to'liq anglash uchun ham frazeologizmlarning ushbu semantik xususiyatiga har doim alohida to'xtalib o'tish joiz.

XULOSA

Shunday qilib, har bir tilda frazeologik birliklar o'ziga xos lingvistik xususiyatlarga ega. Tarkibiy qismi atoqli ot komponentiga ega frazeologik sinonimlar va frazeologik antonimlar tilning lug'aviy tarkibini va nutqni boyitishga xizmat qiladi va unga hissiy bo'yoqdorlik ma'nolarini mujassamlashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Chitova, L. F. (2013). Proper name idioms and their origins. Saint Petersburg, Russia: Sankt-Petersburg Press.
2. Dildora, G. A. (2025). "OXFORD DICTIONARY OF IDIOMS" LUG'ATIDAGI ANTROPONIM KOMPONENTLI FRAZEOLOGIZMLARNING SEMANTIK VA LEKSIKOGRAFIK TADQIQI. «ACTA NUUZ», 1(1.10), 262-265.
3. Hojiyev, A. (2002). O'zbek tili frazeologiyasi masalalari. Tashkent, Uzbekistan: O'qituvchi.
4. Kopylenko, M. M., & Popova, Z. D. (1972). Ocherki po obshchey frazeologii. Moscow, Russia.
5. Qizi, G. D. F. (2026). A SEMANTIC-STYLISTIC ANALYSIS OF ENGLISH PHRASEONYMS DENOTING HUMAN PHYSICAL CHARACTERISTICS. *Universum: филология и искусствоведение*, 2(3 (141)), 15-18.

6. Qizi, G. D. F., & Qizi, J. I. M. Etymological Characteristics of Uzbek Non-equivalent Lexis and Their Linguoculturological Significance. *JournalNX*, 47-53.
7. Rahmatullayev, Sh. (1992). *O'zbek tilining frazeologik lug'ati*. Tashkent, Uzbekistan: Qomuslar bosh tahririyati.
8. Shanskiy, N. M. (1978). *Leksikologiya sovremennogo russkogo yazyka*. Moscow, Russia.
9. Vinogradov, V. V. (1977). *Izbrannye trudy. Leksikologiya i leksikografiya*. Moscow, Russia: Nauka.
10. Yo'ldoshev, B. (1998). *Hozirgi o'zbek adabiy tilida frazeologik birliklarning uslubiy xususiyatlari*. Tashkent, Uzbekistan: Fan.